



THE SOCIO-ECONOMIC FACTOR IN THE TRANSFORMATION OF IRAN'S POLITICAL SYSTEM

Dilshoda Khodjimuratova

Doctor of Philosophy in Historical Sciences, Senior Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilshoda_xodzhimuratova@tsuos.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: “resistance economy,” “tawhid economy,” international sanctions, social stability, youth unemployment, modernization, economic transformation.

Received: 15.02.25

Accepted: 17.02.25

Published: 19.02.25

Abstract: The article is dedicated to the processes of socio-economic transformation in Iran after 1979. The main focus is on the formation of the "resistance economy" model, measures to maintain economic stability under international sanctions, and their impact on the social life of the population. The article examines the interconnection between modernization processes and theocratic principles, as well as reforms aimed at improving social infrastructure and their limitations. The influence of factors such as unemployment, dependence on international market conditions, and internal political contradictions on the country's economic development is analyzed.

ERON SIYOSIY TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILI

Dilshoda Xodjimuratova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilshoda_xodjimuratova@tsuos.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “qarshilik iqtisodiyoti”, “tavhid iqtisodiyoti”, xalqaro sanksiyalar, ijtimoiy barqarorlik, yoshlar ishsizligi, modernizatsiya, iqtisodiy transformatsiya.

Annotatsiya: Maqola Eronda 1979-yildan keyin amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlariga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor “qarshilik iqtisodiyoti” modelining shakllanishi, xalqaro sanksiyalar sharoitida iqtisodiy barqarorlikni

saqlash choralari va uning aholi ijtimoiy hayotiga bo'lgan ta'siriga qaratilgan. Maqolada modernizatsiya jarayonlarining teokratik tamoyillar bilan uzviy bog'liqligi, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishga qaratilgan islohotlar va ularning chegaralari aks ettirilgan. Eronda ishsizlik kabi ijtimoiy muammolar, xalqaro konyunkturaga bog'liqlik va ichki siyosiy qarama-qarshiliklarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИРАНА

Дилшода Ходжимуратова

Доктор философии по истории, старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dilshoda_xodjimuratova@tsuos.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	«экономика тавхид», «экономика тавхид», социальная стабильность, молодежная безработица, модернизация, экономическая трансформация.	Аннотация:	Статья посвящена социально-экономической трансформации в Иране после 1979 года. Основное внимание уделяется формированию модели «экономики сопротивления», мерам по сохранению экономической стабильности в условиях международных санкций и их влиянию на социальную жизнь населения. В статье рассматривается взаимосвязь процессов модернизации с теократическими принципами, реформы, направленные на совершенствование социальной инфраструктуры, а также их ограничения. Изучается влияние таких факторов, как безработица, зависимость от международной конъюнктуры и внутренние политические противоречия, на экономическое развитие страны.
------------------------	--	-------------------	--

1979-yilda Eron Islom Respublikasi tashkil topganidan buyon davlat siyosiy rahnamolari tashqi tahdidlarga qarshi tura oladigan, mustaqil va o'ziga xos iqtisodiy tizim yaratish zarurligini ustuvor vazifa sifatida belgilab kelmoqdalar. 2000-yillarga kelib Eron hukumatining iqtisodiy strategiyasi “qarshilik iqtisodiyoti” konsepsiyasi asosida shakllantirildi. Mazkur iqtisodiy model o'zini o'zi ta'minlash tamoyiliga asoslangan bo'lib, unda davlatning iqtisodiyotdagi roli kuchli ekanligi, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlar sharoitida islom davlatining barqarorligini ta'minlash uning bosh maqsadi etib belgilangan edi. “Qarshilik iqtisodiyoti” strategiyasi o'z oldiga

qo'ygan vazifalarni bir necha bor muvaffaqiyatli amalga oshira oldi. Jumladan, 2009-2015-yillar va 2018-yildan keyin Eronga nisbatan joriy etilgan keskin iqtisodiy sanksiyalarga qaramay, mamlakat iqtisodiyotining barbod bo'lishiga yo'l qo'yilmadi, hatto ma'lum darajada iqtisodiy o'sish sur'atlari ham qayd etildi. Biroq ushbu model tashqi tahdidlarga qarshi turish va mamlakatni iqtisodiy inqirozdan asrashda ma'lum darajada samara bergan bo'lsa-da, u ijtimoiy sohaning jiddiy yaxshilanishi va aholi turmush darajasining oshishi bilan kechadigan barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qodir emasligi ayon bo'lib qoldi. Oqibatda eronliklar o'z turmush sharoitlaridan noroziligi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy nizolarni keltirib chiqarmoqda va bu holat Eron rahbariyatining legitimligiga putur yetkazmoqda.

Eron iqtisodiy modernizatsiyasi o'ziga xos tarixiy evolyutsion jarayon bo'lib, uning ilk bosqichi XIX asr birinchi yarmida boshlangan va mamlakatda tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga turtki bergan. Modernizatsiya jarayonlarining asosiy katalizatori sifatida Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar bilan o'rnatilgan ko'p qirrali munosabatlar xizmat qilgan. Ushbu davlatlarning geosiyosiy manfaatlari doirasida Eron ichki ishlariga aralashuvi mamlakat mustaqilligini saqlab qolish masalasini dolzarb vazifaga aylantirdi. Mustaqillikni ta'minlash uchun esa chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'ldi. Bu islohotlar mamlakat suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladigan institutsional poydevor yaratishga qaratilgan edi. Biroq tezkor modernizatsiya sharoitida Eron o'zining milliy taraqqiyot modelini ishlab chiqishga, xorijiy tajribalarni mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirishga yetarli vaqt va imkoniyat topa olmadi. Bu esa o'z navbatida, modernizatsiya jarayonlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tarixiy tajriba ko'rsatishicha, ko'pgina jadal modernizatsiya bo'layotgan davlatlar kabi, Eronda ham modernizatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va yetakchi ijrochisi hukmron elita bo'lgan. Oxirgi ikki asr mobaynida Eronda modernizatsiya jarayonlarining notekis rivojlanishi ko'p jihatdan hukmron elitaning islohotlarni jadallashtirishga doimiy tayyor emasligi bilan izohlanadi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Pahlaviylar sulolasi modernizatsiya jarayonida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishdi. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ldi: inson huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk huquqini tan olish; sekulyarizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish; davlat hokimiyatini markazlashtirish; dunyoviy ta'limni keng joriy etish; milliy davlat barpo etish; separatistik harakatlarni qat'iy bostirish; ikki jahon urushi oraliq'ida mamlakatdagi chet el iqtisodiy manfaatlarini cheklash.

Ikkinchi jahon urushidan keyin bu islohotlar 1960-1970-yillarda Muhammadrizo Pahlaviy tomonidan boshlangan "oq inqilob" yoki "shoh va xalq inqilobi" davrida yanada chuqurlashtirildi.

Agrar islohotlar, jadal industrializatsiya va ilg'or texnologiyalarni faol joriy etish natijasida 1967-1976-yillar davrida Eron yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 10 foizga oshdi.

Eronda islom inqilobidan so'ng modernizatsiya jarayonlari o'zgacha yo'nalishda davom etdi. Inqilob g'oyasi nazariyotchilarining fikriga ko'ra, bu jarayon g'arblashuv ta'sirlarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar – inflyatsiya, ishsizlik va korrupsiya kabi salbiy hodisalar aynan g'arblashuv oqibati sifatida talqin qilinar edi. Eron Islom Respublikasining dastlabki yillari shariat talablariga mos keladigan iqtisodiy modelni joriy etish tajribasi bilan xarakterlanadi. Bu, xususan, Eronning birinchi prezidenti Abulhasan Banisadr asarlarida tavsiflangan “tavhid iqtisodiyoti” modeli edi. Mazkur iqtisodiy model inqilobgacha asosan nazariy konsepsiya sifatida mavjud bo'lib, u Muhammad Boqir as-Sadr kabi diniy mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan (1961-yilda nashr etilgan “Bizning iqtisodiyotimiz” asari).

Ushbu yo'nalish iqtisodiyotni inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida emas, balki diniy axloqni ro'yobga chiqarish mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilish bilan ajralib turardi. Konsepsiyaga ko'ra, ideal jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqi insonning mehnat qilish imkoniyatlari bilan cheklanishi, shaxsiy mehnatga asoslanmagan mulk esa davlat tasarrufida bo'lishi lozim edi. Banisadr ta'kidlashicha, jamiyatning bu holatiga kelajakda, taxminan 12 avloddan so'ng erishish mumkin. Ideal islomiy jamiyatning chegaralari yo'qligi va barcha uchun yuqori farovonlik kabi boshqa xususiyatlari bu yondashuvning utopik mohiyatini namoyon etadi va uni amalga oshirish deyarli imkonsiz edi. Natijada avtarkiyaga asoslangan tavhidiy iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etishga urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

1979-yildan keyin Eron iqtisodiy rivojlanish jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv tizimining qayta tashkil etilishi, xorijiy sarmoyaning chiqarilishi va xalqaro iqtisodiy aloqalar cheklanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buning ustiga, ichki muxolifatga qarshi keskin kurash va Iroq bilan urush holati iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Bu holat, ayniqsa, G'arb taraqqiyot modellarini qo'llashda davom etgan va milliy iqtisodda xorijiy sarmoya ishtirokidan voz kechmagan davlatlar (masalan, Tayvan va Singapur) bilan solishtirilganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi aholi turmush darajasining tushib ketishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, Eron iqtisodiyotining neft eksportiga bog'liqligi yanada kuchaydi. Inqilobdan so'ng Eronning G'arb modelidagi modernizatsiyadan voz kechishi va “uchinchi yo'l”ni izlashi kutilgan to'liq mustaqillikka olib kelmadi va bu obyektiv sabablarga ko'ra imkonsiz ham edi. Aksincha, xom ashyo eksportiga asoslangan iqtisodiyot, G'arb dunyosi va Isroil bilan qarama-qarshilik Eronni jahon neft narxlari konyunkturasi va joriy sanksiyalarga nisbatan yanada zaif va qaram qilib qo'ydi.

Eron iqtisodiyotining liberallashtirilishi ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlari bilan parallel ravishda olib borildi. Ayniqsa, ijtimoiy sohani takomillashtirish tashabbuslari ikkinchi besh yillik reja amalga oshirilayotgan davrda faol tarzda ro'yobga chiqarildi. Bu ko'p jihatdan avvalgi davrda amalga oshirilgan narxlarni erkinlashtirishning salbiy oqibatlarini yumshatish zarurati bilan bog'liq edi.

Eron rahbariyati, aholining kam ta'minlangan qatlamlarni himoya qilish to'g'risidagi R.Xumayniyning asosiy ko'rsatmalariga amal qilgan holda hamda shoh davri tajribasining salbiy jihatlarini inobatga olib, modernizatsiyaning ijtimoiy yo'nalishiga alohida e'tibor qaratdi. Natijada Eronda maxsus jamg'armalar, davlat subsidiyalari va mahalliy aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi sifatida faoliyat yurituvchi masjidlar tarmog'iga asoslangan keng qamrovli ijtimoiy ta'minot tizimi yaratildi.

1990-yillar Eronda amalga oshirilgan islohotlar natijasida iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos modeli shakllandi. Bu model davlat sektorining yetakchiligi va iqtisodiyotni davlat tomonidan keng miqyosda tartibga solish mexanizmlariga tayangan edi. Bunday yondashuvning tanlanishi G'arbning milliy madaniyatga ta'sirini cheklashga bo'lgan intilish bilan izohlanadi. Diniy qadriyatlar va an'analar ustuvorligi esa Konstitutsiyada davlatning institutsional asosi sifatida mustahkamlab qo'yildi.

Modernizatsiya jarayonlari Eron madaniy sohasi rivojlanishida ham muhim o'rin tutdi. Xususan, Muhammad Xatamiy prezidentligi davrida (1997-2005 yy.) madaniy sohada liberal islohotlar amalga oshirilib, G'arb mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatish siyosati yuritildi. M.Xotamiy "sivilizatsiyalar muloqoti"ni ilgari surib, hech qaysi sivilizatsiyaning, jumladan islomiy sivilizatsiyaning ham ustunligi va eksklyuzivligi g'oyalarini rad etdi. Uning Madaniyat vaziri va keyinchalik prezident sifatidagi faoliyati senzurani yumshatish, g'arb matbuotini import qilishga ruxsat berish va birinchi marta ayol (Masuma Ebtekor)ni Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritish kabi muhim islohotlar bilan e'tiborga molik bo'ldi.

2005-yildan boshlab Eronda "adolatli davlat" barpo etishga qaratilgan yangi bosqich boshlandi. Mahmud Ahmadinajodning prezidentlik dasturi davlatning barcha faoliyat sohalariga – siyosat, madaniyat va iqtisodiyotga "adolat" tamoyillarini joriy etishni nazarda tutar edi. Bunda "siyosiy adolat" tamoyili "iqtisodiy adolat"dan ustuvor deb belgilandi. Shu bois, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va xalq bilan muloqotni kuchaytirish eng muhim ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Bu davrda davlat oldida eng avvalo ijtimoiy muammolar – qashshoqlik, nochorlik va inflyatsiyani bartaraf etish, barqaror taraqqiyot va aholi turmush darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifasi turardi. Bu konsepsiyaga fuqarolarning sifatli tibbiy xizmatdan

foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ularning xarajatlarini subsidiyalash kabi muhim masalalar ham kiritildi.

2018-yilda Eronga qarshi qayta joriy etilgan xalqaro sanksiyalar Hasan Ruhoniy hukumati uchun jiddiy sinov bo'ldi. Sanksiyalar inflyatsiyani kuchaytirib, milliy valyuta qiymatini pasaytirdi va iste'mol narxlarining keskin o'sishiga olib keldi.

2019-yil noyabrida Eronda oxirgi o'n yildagi yirik norozilik namoyishlaridan biri sanksiyalar ta'siri ostida yuz berdi. Yoqilg'i narxlarini oshirish to'g'risidagi hukumat qarori noroziliklarni keltirib chiqardi. 2018-yilda xalqaro neft bozoriga kirish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Eron ijtimoiy dasturlarni qisqartirishga majbur bo'ldi. 2019-yil 17-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasi majlisida prezident Hasan Ruhoniy kam ta'minlangan qatlamlarga yetarli yordam ko'rsatish uchun subsidiyalarni qisman qisqartirish va qayta tuzish zarurligini tan oldi. Garchi hukumat vaziyatni barqarorlashtirishga erishgan bo'lsa-da, turli darajadagi namoyishlar va noroziliklar Eronning yangi siyosiy voqeligiga aylandi.

Erondagi mavjud muammolarning yagona sababchisi va rivojlanish yo'lidagi asosiy to'siq sifatida faqat sanksiyalarni ko'rsatish ilmiy jihatdan asossizdir. Mamlakat rahbariyati sanksiyalarga va ularning iqtisodiyotga ko'rsatayotgan salbiy ta'siriga qarshi kurashish maqsadida "qarshilik iqtisodiyoti" deb nomlangan turli iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqdi.

1980-yillar "tavhid iqtisodiyoti" modeli doirasida ichki resurslarga tayanib, tashqi bosimga qarshi tura oladigan, islom an'analari asoslangan xo'jalik tizimini barpo etish g'oyasi ilgari surilgan edi. Bu modelning "qarshilik iqtisodiyoti"ga transformatsiyasi o'n yilliklarni qamrab oldi. Ushbu jarayon iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda islom dinining markaziy roliga oid messianlik-romantik qarashlardan asta-sekin voz kechish bilan xarakterlanadi. Dastlab bu strategiya G'arb bozor iqtisodiyotiga muqobil bo'lishi kerak edi, ammo amalda hukmron Eron siyosiy elitasining manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan pragmatik yondashuvlar ustunlik qildi.

Davlat sanksiyalar doirasiga kirmaydigan eksport operatsiyalarini amalga oshiruvchi yoki sanksiyalar tufayli mavjud bo'lmagan xorijiy uskunalar va mahsulotlarning muqobil turlarini ishlab chiqaradigan yirik milliy kompaniyalar va sanoat tarmoqlarini faol qo'llab-quvvatladi. Sanksiyalar davrida Eronda zamonaviy neft-kimyo majmualarining yaratilishi buning yorqin misolidir.

Voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, Eron rahbariyati aholining kam ta'minlangan qatlamlari iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni asosiy vazifa sifatida e'lon qilib, populizmni joriy hukumat ichki siyosatining muhim mexanizmiga aylantirdi. Bu esa, o'z navbatida, teokratik hokimiyatni mazkur ijtimoiy qatlamlarning qo'llab-quvvatlashiga doimiy bog'liq qilib qo'ydi. Qashshoq va kam ta'minlangan qatlamlar 1980-yillardagi kabi bugungi kunda ham Eron aholisining asosiy qismini tashkil etadi.

Iqtisodiy islohotlarning zarurligi aniq bo'lishiga qaramay, ularni Eronda amalga oshirish doimo murakkab vazifa bo'lib kelgan. Bank sektori va ijtimoiy dasturlarni isloh qilish hukmron siyosiy tizimning ayrim mafkuraviy tamoyillariga zid kelar edi. Chunki bu tizim kam ta'minlangan aholi qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalashni asosiy ustuvor vazifa deb e'lon qilgan va davlat boshqaruvida diniy-siyosiy elementlarni joriy etishni nazarda tutgan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Eronda ijtimoiy rivojlanish darajasini baholash an'anaviy mezonlar orqali murakkab jarayon hisoblanadi. Mamlakat uchun manzara ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, Eron aholisi yuqori umr ko'rish davomiyligi, o'rta va oliy ta'lim darajasi hamda qo'shni davlatlarga nisbatan ancha yuqori turmush darajasi bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi inson potensialini rivojlantirish indeksining yuqori darajasida o'z aksini topgan. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, ushbu holat Eron aholisi o'ta boy va qashshoq qatlamlarga bo'linganligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning faol o'sishi yo'qligi Eronning eng dolzarb muammolaridan biri – ishsizlikni, ayniqsa yoshlar orasidagi ishsizlikni hal etishni deyarli imkonsiz qiladi. Eng murakkab vaziyat iqtisodiy faol aholining 15-24 yosh oralig'idagi qismida kuzatilmoqda. Xabar online axborot saytining rasmiy statistikaga asoslangan ma'lumotlariga ko'ra, 2015-2020 yillarda bu toifadagi ishsiz yoki ta'lim olmayotgan yoshlar ulushi 31 foizdan 77 foizgacha (3,6 mln.dan 7,1 mln. kishigacha) oshgan. Qo'shimcha ijtimoiy bosim shundan kelib chiqadiki, Eron yoshlarining katta qismi oliy ma'lumotga ega bo'lsa-da, o'ziga mos ish topa olmasligi tufayli undan samarali foydalana olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Eronda islom inqilobidan so'ng teokratiya rasman o'rnatilishiga qaramay, modernizatsiya jarayonlari to'xtab qolmadi. Bu jarayonlarning natijalari diniy va madaniy an'analarga tayangan alohida modernizatsiya turini ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Eronning o'ziga xos yo'li yangi iqtisodiy tamoyillarni ishlab chiqish va joriy etishda emas, balki "tavhid iqtisodiyoti" ko'proq mafkuraviy niqob vazifasini bajargan. Eron modernizatsiyasining o'ziga xosligi an'anaviy madaniy qadriyatlarga tayanganida, jamiyatning madaniy asoslarini saqlab qolishga intilganida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Eronning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari manbai sanksiyalar emas, balki mamlakat Rahbariyati tomonidan tanlangan iqtisodiy model va uning ustuvorliklari. Siyosiy tizim barqarorligini ta'minlash vazifasi to'laqonli rivojlanish va o'sish maqsadlaridan ustun qo'yiladi. Biroq ijtimoiy keskinlikning ortib borishi istiqbolda Eron rahbariyatini ichki barqarorlikni ta'minlash uchun o'z ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Кожанов Н.А. Между развитием, ростом и выживанием: о некоторых особенностях модели социально-экономического развития Ирана на современном этапе // Международная аналитика. 2023. Том 14 (1).
 2. Kozhanov N. Between Development, Growth and Survival: Some Current Features of Iran's Model of Socio-Economic Development. // Journal of International Analytics 14, № 1. 2023.
 3. Беккин Р.И. Тоухидная экономика как разновидность исламской экономической модели // Проблемы современной экономики. 2012. № 2 (42).
 4. Особенности модернизации на мусульманском Востоке. Опыт Турции, Ирана, Афганистана, Пакистана. М.: Институт востоковедения РАН, 1997.
 5. Umar Farooq, Reza Khaasteh. How Four Years of U.S. Sanctions have Devastated Iran's Economy // Middle East Eye, 31.05.2022, [URL:https://www.middleeasteye.net/news/us-sanctions-devastate-iran-economy](https://www.middleeasteye.net/news/us-sanctions-devastate-iran-economy) accessed 15.12.2024.
 6. A Gift to Donald Trump? Iran's Fuel Price Hike Is Costing It Dearly 23.11.2019, [URL:https://nationalinterest.org/blog/buzz/gift-donald-trump-irans-fuel-price-hike-costing-it-dearly-98957](https://nationalinterest.org/blog/buzz/gift-donald-trump-irans-fuel-price-hike-costing-it-dearly-98957). accessed 20.12.2024.
 7. محمد باقر صدر. اقتصاد ما. پژوهشگاه علمی تخصصی شهید صدر. ص. 963.
 8. [آمار متناقض و ترسناک از بیکاری جوانان در کشور / وزارت رفاه: ۷۷ درصد جوانان نه شاغلند نه محصل مرکز آمار: ۲۹ درصد هستند](#)
- (Mamlakatda yoshlar ishsizligining qarama-qarshi statistikasi/Ijtimoiy ta'minot vazirligi: Yoshlarning 77 foizi, talabalarning 29 foizi ish bilan ta'minlanmagan.) [Elektron manba]. 3.08.2022. [URL://bit.ly/3DFG4eP](https://bit.ly/3DFG4eP). (murojaat sanasi: 07.01.2025)